



ALEKSANDR FAYNBERG - IKKI XALQ MADANIYATINI BOG'LAGAN IJODKOR

Muxtorjonova Muhsina Yoqubjon qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: Tursunnazarova Elvira Takhirovna

Kirish

Har bir millat o'z madaniyatini, ruhiyatini va hayot falsafasini san'at hamda adabiyot orqali ifodalaydi. Adabiyot esa millatlar o'rtasidagi ko'prik, insoniy tuyg'ularni birlashtiruvchi qudratli kuchdir. Ana shunday ijodkorlardan biri - Aleksandr Arkadyevich Faynberg bo'lib, u o'zining butun hayoti va ijodini o'zbek va rus xalqlari o'rtasidagi do'stlik, ma'naviyat va insonparvarlik g'oyalari bag'ishladi. Faynberg nafaqat shoir, balki tarjimon, ssenariynavis va san'at fidoyisi sifatida ham katta iz qoldirgan.

Asosiy qism

Aleksandr Arkadyevich Faynberg 1939-yil 2-noyabrda Toshkent shahrida tug'ilgan. Uning bolaligi urushdan keyingi og'ir yillarga to'g'ri kelgan bo'lib, bu davrda insoniy mehnat, sabr-toqat va hayotga muhabbat uning dunyoqarashida chuqur iz qoldirgan. Yoshligidan adabiyotga qiziqqan Faynberg dastlab texnikumda tahsil olib, keyinchalik Toshkent Davlat Universitetining filologiya fakultetida o'qigan. Bu ta'lim unga nafaqat ilmiy bilim, balki so'z san'atining sirlarini chuqur anglash imkonini berdi.

Shoirning ijodi 1960-yillarda boshlandi. Uning ilk she'rlari inson ruhiyatining murakkab kechinmalarini, tuyg'ularning nozik ohanglarini tasvirlashi bilan ajralib turardi. Faynberg she'rlarida o'tgan hayot bilan hozirgi zamon, Sharq bilan G'arb, milliylik bilan umuminsoniylik uyg'unlashadi. Uning she'riy tili nafis, ifodasi falsafiy. ohangi esa lirikadan to'yingan.

Faynberg ijodining asosiy xususiyatlaridan biri bu - Sharq va G'arb uyg'unligidir. U rus tilida yozgan bo'lsa-da, asarlarida o'zbek xalqining qadriyatlari, urf-odatlar, tabiat manzaralari, xalqning ruhiy olamini chuqur aks ettira olgan. Shu bois uning she'rlari o'zbek o'quvchisiga ham, rus kitobxoniga ham birday yaqin. Shoir Toshkentni, O'zbekistonni, insoniy mehr va tinchlikni madh etuvchi asarlar yozgan.

Tarjimon sifatida u o'zbek adabiyotining ko'plab durdonalarini rus tiliga o'g'irgan. Xususan, Alisher Navoiy, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi shoirlarning asarlarini tarjima qilib, ularni rus o'quvchilariga yetkazgan. Shu orqali u ikki xalq o'rtasida ma'naviy ko'prik yaratgan. Faynbergning tarjimalari oddiy tarjima emas, balki asarning ruhini, ohangini, ma'naviy teranligini saqlab qolgan ijodiy talqin hisoblanadi.

Bundan tashqari, Faynberg kino sohasida ham faol ijod qilgan. U 20 dan ortiq animatsion film va bir necha badiiy filmlar uchun ssenariy yozgan. Uning bu yo'nalishdagi ishlari ham san'atning turli shakllarini birlashtira olgan ijodkor sifatida qanchalik ko'p qirrali ekanini ko'rsatadi.



Uning mehnati va ijodiy faoliyati yuksak e'tirofga sazovor bo'lgan. 2004-yilda Aleksandr Faynberg "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni bilan taqdirlangan. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi tomonidan unga madaniy aloqalarni mustahkamlashdagi xizmatlari uchun "Pushkin medali" topshirilgan. Bu mukofotlar uning ikki xalq madaniyatiga qo'shgan beqiyos hissasini tasdiqlaydi.

Xulosa

Aleksandr Faynbergning hayoti va ijodi insoniyatni birlashtiruvchi, madaniyatlararo do'stlikni mustahkamlovchi buyuk ma'naviy merosdir. U o'z asarlari orqali "til boshqacha bo'lsa ham, qalb tuyg'usi bir" degan haqiqatni isbotlab berdi. Uning she'rlari, tarjimalari va ssenariylari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Faynberg o'zbek va rus xalqlarining do'stligi timsoliga aylangan ijodkor bo'lib, uning nomi millatlararo hamjihatlik, insonparvarlik va san'atga sadoqat ramzi sifatida yashab qolmoqda.

